

**TALABALAR ORASIDA INVESTITSIYA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH BO'YICHA
INNOVATSION YONDASHUVLAR**

Xasanova Aziza Ikromovna

Xalqaro Innovatsion Unversiteti

Iqtisodiyot va moliya kafedrası o'qituvchisi

azizaxasanova65@gmail.com

Muxtorova Durdona Ulmas qizi

Xalqaro Innovatsion Unversiteti talabasi

E-mail: dordonamuxtorova0215@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim tizimida talabalar orasida investitsiya madaniyatini shakllantirishning dolzarbligi, nazariy asoslari va amaliy yo'nalishlari keng yoritilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarning moliyaviy savodxonligi va investitsion tafakkurini rivojlantirish milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri ekanligi asoslab beriladi. Maqolada, avvalo, investitsiya madaniyatining mazmuni, uning shaxsiy va ijtimoiy darajadagi ahamiyati tahlil qilinadi. So'ngra oliy ta'lim tizimida bu madaniyatni shakllantirishning innovatsion usullari– raqamli ta'lim texnologiyalari, gamifikatsiya (o'yinlashtirish) uslubi, startap va investitsiya klublari, shuningdek, sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan o'quv platformalari yoritib beriladi. Maqola yakunida yoshlar orasida investitsiya madaniyatini rivojlantirish nafaqat ta'limiy jarayonning muhim qismi, balki milliy iqtisodiy taraqqiyotning strategik omili sifatida baholanadi.*

Kalit so'zlar: *investitsiya madaniyati, moliyaviy savodxonlik, innovatsion yondashuv, gamifikatsiya, raqamli texnologiyalar, startap loyihalar, sun'iy intellekt, iqtisodiy kompetensiya, risklarni boshqarish, moliyaviy rejalashtirish, investitsion risklar, kapital bozorlari, raqamli iqtisodiyot, raqamli moliya, ta'limda texnologiyalar, virtual treninglar, interaktiv o'quv usullari, gamifikatsiya.*

Аннотация: *В статье широко рассматриваются актуальность, теоретические основы и практические направления формирования инвестиционной культуры у обучающихся в современной системе образования. Утверждается, что в условиях рыночной экономики развитие финансовой грамотности и инвестиционного мышления молодёжи является одним из факторов, напрямую влияющих на устойчивое развитие национальной экономики. В статье сначала анализируется содержание инвестиционной культуры, её значение на личностном и общественном уровнях. Затем освещаются инновационные методы формирования этой культуры в системе высшего образования – цифровые образовательные технологии, методы геймификации, стартап- и инвестиционные клубы, а также обучающие платформы, разработанные на основе искусственного интеллекта. В*

заклучение статьи развитие инвестиционной культуры молодёжи рассматривается не только как важная часть образовательного процесса, но и как стратегический фактор развития национальной экономики.

Ключевые слова: *инвестиционная культура, финансовая грамотность, инновационный подход, геймификация, цифровые технологии, стартап-проекты, искусственный интеллект, экономическая компетентность, управление рисками, финансовое планирование, инвестиционные риски, рынки капитала, цифровая экономика, цифровые финансы, технологии в образовании, виртуальное обучение, интерактивные методы обучения, геймификация.*

Abstract: *The article broadly examines the relevance, theoretical foundations and practical directions of developing an investment culture among students in the modern education system. It is argued that in a market economy, developing financial literacy and investment thinking among young people is one of the factors directly influencing the sustainable development of the national economy. The article first analyzes the content of investment culture and its significance at the personal and societal levels. The article then explores innovative methods for fostering this culture in higher education, including digital educational technologies, gamification methods, startup and investment clubs, and learning platforms developed using artificial intelligence. In conclusion, the article considers the development of investment culture among young people not only as an important part of the educational process, but also as a strategic factor in the development of the national economy.*

Keywords: *investment culture, financial literacy, innovative approach, gamification, digital technologies, startup projects, artificial intelligence, economic competence, risk management, financial planning, investment risks, capital markets, digital economy, digital finance, educational technologies, virtual learning, interactive teaching methods, gamification.*

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti globallashtirib jarayonlarini chuqurlashtirib, raqamli texnologiyalarni iqtisodiy faoliyatning deyarli barcha jabhalariga joriy etmoqda. Aynan shunday sharoitda har bir insondan, ayniqsa yosh avloddan, moliyaviy masalalarga mas'uliyatli yondashish, iqtisodiy fikrlashni rivojlantirish va investitsiya imkoniyatlarini to'g'ri baholay olish talab etiladi. Globallashtirish va raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy savodxonlik, xususan investitsiya madaniyatini rivojlantirish yoshlarning iqtisodiy mustaqilligi va barqaror kelajagini ta'minlashda muhim omilga aylanmoqda. Talabalar investitsiya bozorining eng faol potensial ishtirokchilari bo'lib, ularda to'g'ri investitsion qarorlar qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish mamlakat iqtisodiy o'sishini jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu bois ta'lim jarayonida zamonaviy, innovatsion yondashuvlarga asoslangan mexanizmlarni qo'llash talab etiladi.

Investitsiya madaniyati – bu faqatgina kapital kiritish jarayoni emas, balki shaxsning o‘z moliyaviy hayotini rejalashtira olishi, iqtisodiy qarorlar qabul qilishda tahliliy yondashuvi va risklarni boshqara bilish madaniyatidir. Bugungi kunda yoshlar, ayniqsa talabalar, raqamli texnologiyalar yordamida jahon moliya bozorlariga kirish imkoniga ega bo‘lsalar-da, ularning aksariyati moliyaviy xatarlarni to‘liq tushunmaydi. Bu esa ularning iqtisodiy xavfsizligi va kelajakdagi barqarorligini ta‘minlashda muayyan muammolarni keltirib chiqaradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida yoshlarning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirish, ularni investitsion va tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shuningdek, “Moliyaviy savodxonlikni oshirish konsepsiyasi” yoshlarning moliyaviy bilimi va mas‘uliyatini oshirish orqali ularni raqamli iqtisodiyot sharoitida faol ishtirok etishga tayyorlashni maqsad qilib qo‘ygan. Bugungi kunda O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida iqtisodiy fanlar, jumladan moliya, menejment va iqtisodiyot yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun investitsiya madaniyatini shakllantirish o‘quv jarayonining muhim elementi sifatida e‘tirof etilmoqda. Ammo mavjud ta‘lim usullari ko‘p hollarda nazariy ma‘lumotlarga asoslanib, amaliy faoliyatni yetarlicha o‘z ichiga olmaydi. Shu sababli, bu yo‘nalishda innovatsion, interaktiv va raqamli ta‘lim metodlarini qo‘llash zarurati kun tartibiga chiqmoqda. Dunyo tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda talabalarning investitsion fikrlashini shakllantirish ta‘lim siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Masalan, AQSh universitetlarida “Student Managed Investment Fund” tizimi talabalarni real mablag‘lar asosida birjada ishlashga o‘rgatsa, Janubiy Koreyada har bir talaba moliyaviy savodxonlik bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlardan o‘tadi. Shunday ekan, O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalarida ham investitsiya madaniyatini shakllantirishning ilg‘or usullarini joriy etish, ta‘lim jarayonini raqamlashtirish, talabalarni amaliy moliyaviy tajribaga jalb etish va ularning iqtisodiy mas‘uliyatini oshirish mamlakat iqtisodiy barqarorligiga xizmat qiladi. Shu maqsadda, ushbu maqolada talabalar orasida investitsiya madaniyatini shakllantirishning ilmiy asoslari va innovatsion yondashuvlari atroflicha tahlil qilinadi.

Investitsiya madaniyati tushunchasi va uning ahamiyati

Investitsiya madaniyati- bu shaxsning moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, risklarni baholash, iqtisodiy foyda olish va kelajakni rejalashtirishga asoslangan ongli iqtisodiy faoliyati hisoblanadi.

Investitsiya madaniyati, avvalo, daromad manbalarini to‘g‘ri boshqarish, risk va rentabellik o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish, moliyaviy bozorlar faoliyatini tahlil qilish, shuningdek, uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishni puxta bilishni talab qiladi. Afsuski, bugungi kunda ko‘plab talabalar investitsiya bozorining mohiyati bilan yetarli tanish emas, moliyaviy qarorlar qabul qilishda tajribasiz yoki noto‘g‘ri manbalarga tayanadi. Bu esa ularda investitsiya jarayoniga nisbatan ishonchsizlik, noaniqlik va xavf sezilarli darajada yuqori bo‘lishiga olib kelmoqda.

Shu bois, oliy ta'lim tizimida investitsiya madaniyatini shakllantirish bo'yicha innovatsion yondashuvlarni joriy etish dolzarb masalaga aylandi. Talabalar uchun bu madaniyatning ahamiyati shundaki, u:

- moliyaviy mustaqillikka erishish imkonini beradi;
- iqtisodiy mas'uliyat va intizomni shakllantiradi;
- jamiyatda tadbirkorlik va innovatsion fikrlashni rag'batlantiradi;
- raqamli iqtisodiyot talablariga mos iqtisodiy tafakkurni rivojlantiradi.

Investitsiya madaniyatiga ega yoshlar nafaqat shaxsiy moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi, balki mamlakat iqtisodiyotining faol subyektiga aylanishadi.

Talabalar orasida investitsiya madaniyatini shakllantirish zarurati

Bugungi globallashuv jarayonida iqtisodiy bilim va moliyaviy savodxonlik har bir yosh uchun muhim omilga aylanmoqda. Xususan, talabalar orasida investitsiya madaniyatini shakllantirish nafaqat ularning shaxsiy moliyaviy barqarorligini ta'minlash, balki jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadigan yetuk mutaxassislarni tayyorlashda ham muhim o'rin tutadi.

Investitsiya madaniyati talabaga mablag'larni to'g'ri boshqarish, risklarni baholash, uzoq muddatli rejalashtirish va moliyaviy intizom kabi ko'nikmalarni beradi. Bu esa yoshlarning kelajakda o'z biznesini yo'lga qo'yishida, jamg'arma yaratishida yoki moliyaviy mustaqillikka erishishida muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, talabalar investitsiya jarayonini o'rganish orqali global moliya bozoridagi o'zgarishlarga moslasha oladi, iqtisodiy fikrlash doirasini kengaytiradi va raqobatbardosh bo'lib shakllanadi.

Ta'lim muassasalarida investitsiya bo'yicha seminarlar, amaliy mashg'ulotlar, moliyaviy savodxonlik klublari va startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash orqali talabalar orasida mazkur madaniyatni rivojlantirish mumkin. Bunday tashabbuslar yoshlarni faol, mas'uliyatli va iqtisodiy jihatdan ongli shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

Shu bois, talabalarda investitsiya madaniyatini shakllantirish - zamonaviy ta'limning ajralmas qismi bo'lib, mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va yoshlarning kelajagi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda yoshlar orasida moliyaviy savodxonlik darajasi ortib bormoqda, ammo investitsiya madaniyati hali yetarli darajada shakllanmagan. Talabalarning aksariyati moliyaviy risk, investitsiya vositalari va portfel tahlili kabi tushunchalarni nazariy bilsa-da, ularni amaliyotda qo'llashga tayyor emas.

Shu sababli:

- moliyaviy ta'limni amaliy komponentlar bilan boyitish;
- simulyatsion o'yinlar va virtual platformalarda tajriba to'plash;
- investitsiya klublari orqali real loyiha asosida ishlash zarur.

Bu yondashuvlar nafaqat bilim, balki amaliy ko'nikma va iqtisodiy mas'uliyatni ham shakllantiradi.

Innovatsion yondashuvlar

Raqamli texnologiyalar talabalarga investitsiya jarayonlarini virtual tarzda o'rganish imkonini beradi.

Masalan:

- Investopedia Simulator - investitsiya amaliyotini xavfsiz o'rganish uchun;
- Trading View - bozor tahlilini o'rganish uchun;
- Coursera, EdX - xalqaro tajribalarni o'zlashtirish uchun xizmat qiladi.

Shuningdek, o'zbek tilida milliy moliyaviy o'quv platformalarini yaratish yoshlar uchun qulay ta'lim muhiti bo'ladi.

Gamifikatsiya ta'lim jarayonini qiziqarli va interaktiv shaklga keltiradi. "Virtual birja", "Eng muvaffaqiyatli investor", "Biznes strateg" kabi o'yinlar orqali talabalar real investitsiya muhitini modellashtiradi, risk va foyda nisbatini tahlil qilishni o'rganadi.

Investitsiya madaniyatini rivojlantirishning yana bir muhim yo'nalishi — universitetlar qoshida startup-laboratoriyalar va innovatsion markazlar faoliyatini yo'lga qo'yishdir. Bunday markazlar talabalar uchun real loyihalar ishlab chiqish, biznes-reja tuzish, investitsiya jalb qilish, venchur kapital bo'yicha muzokaralar olib borish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Bu jarayon talabalarda tadbirkorlik ruhini shakllantiradi va yangi g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishga yordam beradi. Talabalar uchun "Investment Club" yoki "Finance Lab" kabi jamoalar tashkil etish ularda jamoaviy tahlil, sarmoya kiritish, biznes-reja tuzish va investorlarni jalb qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bunday klublar universitet muhitida mini-investitsion tizim rolini bajaradi.

Ayniqsa, mikroinvestitsiyalar tizimini joriy etish talabalar uchun juda qulay mexanizm bo'la oladi. Kichik summalardan foydalanib investitsiya qilish imkonini beruvchi platformalar talabada psixologik to'siqlarni bartaraf etadi va uni real bozorga kirish uchun tayyorlaydi. Masalan, minimal miqdordagi mablag' bilan aksiyalar, obligatsiyalar yoki raqamli aktivlarga sarmoya kiritish bo'yicha tajriba orttirish mumkin.

Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalari ham investitsiya madaniyatini o'rgatishda keng qo'llanilmoqda. AI asosidagi o'quv platformalari har bir talabaga individual yondashuvni ta'minlaydi, uning bilim darajasini tahlil qilib, mos o'quv materiallarini taqdim etadi. Shuningdek, bozor konyunkturasini avtomatik tahlil qiluvchi, investitsiya tendensiyalari bo'yicha vizual ma'lumotlar taqdim etuvchi AI vositalari talabalarning tushunishini yanada osonlashtiradi. AI asosidagi "Smart Investor" tizimlari talabalarga bozor o'zgarishlarini tahlil qilish, investitsiya strategiyasini shakllantirish va qarorlarni simulyatsiya qilish imkonini beradi. Bu texnologiya o'quvchilarning analitik fikrlash va raqamli tafakkurini rivojlantiradi.

Xalqaro tajriba

Dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida investitsiya madaniyatini yoshlar orasida rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

- AQSh universitetlarida "Student Managed Investment Fund" dasturlari mavjud.
- Janubiy Koreyada moliyaviy savodxonlik ta'limning barcha bosqichlariga joriy etilgan.

•Yevropa mamlakatlarida esa FinTech ta'limi orqali yoshlar startap va investitsiya sohasida amaliy ko'nikmaga ega bo'lishadi.

Bu tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish yoshlar iqtisodiy tafakkurini yangi bosqichga olib chiqadi.

XULOSA

Yuqoridagi innovatsion yondashuvlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish talabalar orasida investitsiya madaniyatining shakllanishiga kuchli turtki beradi. Talabalar moliyaviy mustaqil fikrlash, investitsiya bozorini tahlil qilish, ishlab chiqarish va biznes jarayonlarini anglash bo'yicha mustahkam bilimlarga ega bo'ladilar. Eng muhimi, ular kelajakda iqtisodiy jarayonlarning faol ishtirokchisi, innovatsion g'oyalarning tashabbuskori va moliyaviy jihatdan mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanadi. Talabalar orasida investitsiya madaniyatini shakllantirish bugungi kun ta'lim siyosatining strategik yo'nalishidir. Bu jarayon faqat nazariy bilim berish emas, balki yoshlarning iqtisodiy tafakkurini, moliyaviy mustaqilligini va mas'uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Innovatsion yondashuvlar - raqamli ta'lim, gamifikatsiya, startap klublari va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish - investitsiya madaniyatini shakllantirishda samarali natijalar beradi. Shu orqali:

- Talabalar moliyaviy qarorlar qabul qilishda ongli va tahliliy yondashadi;
- Oliy ta'lim tizimi amaliy iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish markaziga aylanadi;
- Yoshlar orasida jamg'arma va investitsiya madaniyati mustahkamlanadi;
- Mamlakatda iqtisodiy faol, innovatsion fikrlovchi va raqamli tafakkurga ega yoshlar avlodi shakllanadi.

Talabalar orasida investitsiya madaniyatini shakllantirish nafaqat ularning shaxsiy farovonligi, balki mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun ham muhimdir. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar, gamifikatsiya, mentorlik dasturlari va startap-laboratoriyalar kabi innovatsion yondashuvlarni integratsiya qilish ushbu jarayon samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shunday ekan, oliy ta'lim muassasalari investitsiya madaniyatini o'qitishning zamonaviy va interaktiv shakllarini keng qo'llashi maqsadga muvofiqdir. Talabalar orasida investitsiya madaniyatini shakllantirish - bu faqat iqtisodiy ta'limning bir bo'lagi emas, balki O'zbekistonning raqamli iqtisodiy transformatsiyasi va moliyaviy barqaror kelajagini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishdir.

Xulosa qilib aytganda, investitsiya madaniyatini talabalar o'rtasida rivojlantirish davlatning iqtisodiy barqarorligiga bevosita xizmat qiladi. Ta'lim tizimida innovatsion metodlarning joriy etilishi, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish va amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish uslublari orqali bu jarayonni yanada takomillashtirish mumkin. Innovatsion yondashuvlarni to'g'ri qo'llash kelajakda investitsiyalardan oqilona foydalanuvchi, iqtisodiy farovonlikka erishuvchi va bozor talablariga moslashgan yosh avlodni tarbiyalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Taraqqiyot strategiyasi.– T.: O'zbekiston, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Moliyaviy savodxonlikni oshirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2021.
3. Ахметова Ш. Инвестиции ва инвестицион фаолият асослари. – Тошкент: Иқтисод-Финанс, 2020.
4. Маматқулов Қ. Молиявий саводхонлик: назария ва амалиёт. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2021.
5. Bodie, Z., Kane, A., & Marcus, A. Investments. – McGraw-Hill Education, 2020.
6. Mishkin, F. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – Pearson, 2021.
7. Reilly, F., & Brown, K. Investment Analysis and Portfolio Management. – Cengage Learning, 2019.
8. Hasanov, B., & Usmonov, A. Oliy ta'lim tizimida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari.//O'zbekiston Iqtisodiy Sharhi, 2023, №4, 45-53b.
9. Abdurahmonova M. Talabalarda investitsion tafakkurni shakllantirishning psixologik asoslari.// Ta'lim va Innovatsiyalar, 2022, №2, 60-68b.
10. Lee, J. Gamification in higher education: Improving financial literacy skills. //International Journal of Educational Technology, 2021, 15(3), 101-112p.
11. Park, S. Digital learning tools in investment education.// Journal of Digital Economy and Finance, 2020, 8(1), 55-70p.
12. Karimov S. Startup ekotizimini rivojlantirishda yoshlarning roli.//Innovatsion Rivojlanish Jurnal, 2023, №1, 75-82b.
13. Qodirov A. Yoshlar orasida moliyaviy madaniyatni shakllantirishning innovatsion yondashuvlari.// Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy jurnali, 2023.